

**BIR YOSHGACHA BOLALAR KASALLANISHLARI DARAJASIGA AYRIM  
IJTIMOIY-GIGIYENIK OMILLARNING TA`SIRI****Marasulova Muxarram***2- son Farg'ona Abu Ali ibn Sino  
nomidagi jamoat salomatligi texnikumi.*

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini o'ziga xos "barometri", aholi salomatligini baxolashning asosiy mezonlaridan biri bu bolalarning, ayniqsa bir yoshgacha bo'lgan bolalarning kasallanish va o'lim ko'rsatkichlaridir. Bolalar salomatligiga ta'sir etuvchi eng katta xavf - xatarlar ancha oldin boshlansada, bunday xavf-xatarlar chaqaloqning ulg'ayish paytida ham saqlanib turadi. Bolaning tug'ilgandan to bir yoshga to'lgunga qadar bo'lgan davr eng nozik davr xisoblanadi. Bu davrda bolalar infeksiyon va noinfeksiyon kasalliklar oldida ancha o'jiz bo'ladi. "O'tkinchi" deb atalmish holatlarning (kamqonlik, gipotrofiya, raxit va boshqalar) yuzaga kelishi ba'zan tez-tez kasallanishga, o'limga olib keladi. (G.Saidova, D.A. Asadov va boshq., 2012; B.Mamatqulov, G.S.Avezova, 2019).

Sog'lom bolalarni dunyoga kelishi va tarbiyalanishi uchun shart-sharoitlarni yaratish, o'sib kelayotgan avlodni jismoniy va ma'naviy kamolotini ta'minlash, ular o'rtasidagi kasallanishlar va o'lim ko'rsatkichlarini kamaytirish sog'liqni saqlash tizimining va xususan onalar va bolalar davolash - profilaktika muassasalarining doimo diqqat markazida bo'lib kelgan. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng ayniqsa, onalar va bolalar salomatligini muxofaza qilish va mustahkamlash, ularga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam hajmini kengaytirish va sifatini yaxshilash borasida qator ilmiy-amaliy tadbirlar amalga oshirildi.

Bolalar hayotining birinchi uch yili davridagi salomatligi holati, kasallanish va o'lim sabablarini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab ilmiy izlanishlar mavjud (Mamatqulov B.M., 1982; 1997, Karimov U.A 1994, Abduqodirova L.K 1999, Gnevasheva T.V., 2000; Raximdjano'v Sh.A. 2006; Rojavskiy L.A., 2007; Perepanova L.S., 2007; Baranov A.A., Albiskiy V.Yu., 2008; Mamatqulov B.M., Avezova G.S., 2019.). Ammo shunga qaramasdan bolalar salomatligi va unga ta'sir qiluvchi xavf omillarini o'rganish hozirgi kunda muhim ahamiyatga ega. Bolalar kasallanishlarining kelib chiqishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijobiy va salbiy omillarni aniqlash, ular asosida xavf omillariga integratsion baho berish va bolalar salomatligini yaxshilash bo'yicha ilmiy asoslangan chora tadbirlar ishlab chiqish va amaliyotga tadbir etish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Bir yoshgacha bolalar kasallanishlari darajasiga ayrim ijtimoiy-gigiyenik omillarning ta'sirini o'rganish.

Tadqiqotning materiallari va usullari. Farg'ona shahridan klaster usulida 2 ta ko'p tarmoqli oilaviy poliklinikalar tanlab olindi va ulardan 2020 yil tug'ilgan 1150 ta bolalarni prospektiv usulda ular 1 yoshga to'lguncha salomatligi kuzatib borildi. Bolalar yashayotgan oila va ularning turmush tarzi anketa - so'rov usulida o'rganildi.

Olingan materiallar “xodisa-nazorat” usuli yordamida o`rganilib bolalar kasallanishlarining yetakchi xavf omillari aniqlandi.

Olingan natijalar. Olib borgan tadqiqotlarimiz Farg`ona shaxrida yashovchi bolalar xayotining birinchi yilidagi kasallanish ko`rsatkichi (dastlabki ma`lumotlar) 1796.7%<sub>0</sub> tashkil qildi. Bir yoshgacha bolalar kasallanish darajalari bir- biridan birmuncha farq qilsada, ularning asosiy tarkibiy qismini 5-6 sinf kasalliklari tashkil etdi. Xozirgi vaqtda bir yoshgacha bolalar orasida tez-tez kasal bo`ladigan bolalarni aniqlash katta ahamiyatga ega. Chunki aynan shu bolalarning yuqori kasallanishi oilaning ijtimoiy-ruhiy xolatiga ta`sir etish bilan bir qatorda, ushbu kontingentga oid bolalar, keyingi yoshlarda xam ko`p kasallangan holda ularning salomatlik darajasiga salbiy ta`sir ko`rsatadi.

Bolalar salomatligiga onaning yoshi , ijtimoiy holati, tug`ruqlar orasidagi davr, bolaning tug`ilgan davridagi vazni, homiladorlik va tug`ruqning kechishi, oilaning qarindoshlik rishtalari, onaning bevosita bolani parvarishlash sifati, oilaning ijtimoiy-ruhiy holati, oila a`zolarining tibbiy bilimi va madaniyati kabi omillar kuchli ta`sir etishi aniqlandi. Ular asosida bolalar salomatligiga integral baho berildi hamda bolalar orasidan xavf guruhlari aniqlandi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari bir yoshgacha bo`lgan bolalarning kasallanishlar darajasi va strukturasi aniqlash imkonini berdi. Geografik iqlim sharoitlar, ota – onalarning tibbiy bilimi va madaniyati darajasi, onalar tomonidan bolalarni parvarishlashning sifati, patronaj hamshirasining chaqaloqlarga bo`lgan e`tibori bolalar hayotining birinchi yilidagi kasalliklarni rivojlanishiga katta ta`sir etishi, hamda ular yetakchi xavf omillar qatoriga kirishi aniqlandi. Bolalar kasallanishlariga ta`sir etuvchi yetakchi xavf omillarini oila shifokorlari va patronaj hamshiralari bolalarni individual va guruhli sog`lomshtirish bo`yicha chora tadbirlar ishlab chiqishda aloxida e`tibor qaratishlari lozim.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. M.F.Ziyaeva. Z.O.Rizaeva. “Bolalarda xamshiralik parvarishi”. Toshkent, “Fan va texnologiya” 2012 yil.
- 2.X.N Fayziev. «Sestrinskiy uxod za detg`mi» Toshkent, «Ilm ziyo» nashriyoti, 2008 yil
- 3.K.S Inomov. «Pediatriyada xamshiralik ishi» Toshkent, 2007 yil
4. “Bolalikdahamshiralik ishi” fanidan tibbiyot kollejlari o`qituvchilari uchun metodik qo`llanma. Toshkent 2016. (UNISEF).